



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

Samarqand sh., Ko'ksaroy maydoni, 1-uy.

2025-yil 19-mart

75-7-0-F/25

Samarqand viloyati hokimligi

Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi boshlig'i N.Saidovning 2025-yil 2-martdag'i (123/01-30-son) murojaatini inobatga olib, viloyat hokimligida xaridlarni amalga oshirishda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlash maqsadida,

1. Viloyat hokimligida davlat xaridlari tanlovini o'tkazish orqali amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi (keyingi o'rnlarda – Komissiya) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar xarid komissiyasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

o'z faoliyatini "Davlat xaridlari to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga qat'iy rioya etgan holda qonuniylik, ochiqlik, shaffoflik va xolislik prinsipi asosida amalga oshirish;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirishni ta'minlash;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilash;

komissiya faoliyatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqish holatlariga yo'l qo'ymaslik.


Komissiya davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

3. Komissiya har chorakda xaridlar haqiqiy talab va ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'tkazilganligi, xaridlar tovarni (ishni, xizmatni) tanlashning, uning iste'mol

xususiyatlarining (tavsifining), sifat ko'rsatkichlari va qiymatining asoslanganligi hisobga olingan holda amalga oshirilganligi kabi holatlar to'g'risida hisobotni viloyat hokimiga taqdim etib borsin.

4. Samarqand viloyati hokimligi ichki audit xizmatlari (A.Xoliqov) Xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiqligi yuzasidan monitoring olib borishini ta'minlasin.
5. Samarqand viloyati hokimining 2020-yil 9-iyundagi 66-sonli farmoyishi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.
6. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinosi F.Abilov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi v.b.



A. Boboyev

Samarqand viloyati hokimining
2025-yil 19-martdagি
75-7-0-F/25-son farmoyishiga
1-ilova

**Viloyat hokimligida davlat xaridlarining tanlovini o‘tkazish orqali amalga
oshirish bo‘yicha xarid komissiyasi**

TARKIBI

N.Saidov

- Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi boshlig‘i,
komissiya raisi

A.Mirzayev

- Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va
kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha
- birinchi o‘rribosari – Iqtisodiyot va moliya bosh
boshqarmasi boshlig‘i kotibiyati bosh
mutaxassisi, *komissiya raisi o‘rnibosari*

A.Aktamov

- Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi bosh
mutaxassisi.

A.Qilichov

- Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy
rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar
bo‘yicha o‘rribosari kotibiyati bosh mutaxassisi.

M.Gafurova

- Viloyat hokimligi xo‘jalik ishlari mudiri,
komissiya kotibi

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tganda lavozimga yangi tayinlanganlar komissiya
a’zosi hisoblanadi.